



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

6 (80) 2025

**Сопредседатели редакционной
коллегии:**

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:
М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЬЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОВЕВ
С.А.ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Б.Б. ХАСАНОВ
Д.А. ХАСАНОВА
Б.З. ХАМДАМОВ
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Ташкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

6 (80)

2025

ИЮНЬ

www.bsmi.uz
https://newdaymedicine.com E:
ndmuz@mail.ru
Тел: +99890 8061882

Received: 20.05.2025, Accepted: 06.06.2025, Published: 10.06.2025

UQK 616.12-007.61-073.75-092

BIRIKTIRUVCHI TO‘QIMA DIFFERENSIALLASHMAGAN DISPLAZIYASI BO‘LGAN BEMORLARDA EXOKARDIOGRAFIK VA GEMODINAMIK BUZILISHLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

¹Norbo ‘tayev Olimjon Mustafaqul o‘g‘li <https://orcid.org/0009-0002-7978-0355>

²Mirzayev Ozod Voxidovich <https://orcid.org/0009-0004-3846-7607>

¹Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti, 100109 Toshkent, O‘zbekiston Farobiy ko‘chasi 2,
Tel: +998781507825 E-mail: info@tdmu.uz

²Samarqand Davlat tibbiyot universiteti. Samarqand, O‘zbekiston A.Temur ko‘chasi 18, Tel:
+99866 2330841 Email: sammu@sammu.uz

✓ Rezyume

Butun dunyoda hozirda biriktiruvchi to‘qima patologiyasi ichki kasalliklarning tibbiy-ijtimoiy muammosi bo‘lib, uning dolzarbligi quyidagi holatlarga bog‘liq: autosom-dominant tarzda o‘tuvchi biriktiruvchi to‘qima displaziyasi belgilarining axoli orasida to‘planishi natijasida bemorlar sonining ortib borishi, zamonaviy diagnostika imkoniyatlarining oshishi, ko‘plab a‘zo va tizimlardagi patologiyaning mavjudligi bir qator asoratlar xavfini oshiradi, ulardan biri to‘satdan o‘limdir. Oxirgi o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, "... populyatsiyada biriktiruvchi to‘qima displaziyasining tarqalishi turlicha bo‘lib - 13% dan 85% gacha uchrashi, bu xisobga olingan fenotipik xususiyatlarning noaniqligi, muammoni tushunishga kompleks yondashuvning yo‘qligi bilan bog‘liq

Kalit so‘zlar: Exokardiografik buzilishlar, xordalarning anomal joylashuvi, Sinus taxikardiyasi, Ekstrasistola

ЭХОКАРДИОГРАФИЧЕСКИЕ И ГЕМОДИНАМИЧЕСКИЕ НАРУШЕНИЯ У БОЛЬНЫХ С НЕДИФФЕРЕНЦИРОВАННОЙ ДИСПЛАЗИЕЙ СОЕДИНИТЕЛЬНОЙ ТКАНИ ОСОБЕННОСТИ

¹Норбутаев Олимжон Мустафакул угли, <https://orcid.org/0009-0002-7978-0355>

²Мирзаев Озод Вохидович <https://orcid.org/0009-0004-3846-7607>

¹Ташкентский государственный медицинский университет, 100109 Ташкент, Узбекистан,
ул. Фаробия, 2, Тел: +998781507825 E-mail: info@tdmu.uz

²Самаркандский государственный медицинский университет, Самарканд, Узбекистан
ул. А.Темур 18, Тел: +99866 2330841 Email: sammu@sammu.uz

✓ Резюме

Во всем мире в настоящее время патология соединительной ткани является медико-социальной проблемой внутренних болезней, актуальность которой обусловлена следующими обстоятельствами: увеличение числа больных в результате накопления признаков дисплазии соединительной ткани с аутомно-доминантным течением среди населения, повышение современных диагностических возможностей, наличие патологии во многих органах и системах увеличивает риск ряда осложнений, одним из которых является внезапная смерть. Согласно последним исследованиям,..."распространенность дисплазии соединительной ткани в популяции варьирует - от 13% до 85%, что связано с неоднозначностью учетных фенотипических особенностей, отсутствием комплексного подхода к пониманию проблемы.

Ключевые слова: Эхокардиографические нарушения, аномальное расположение хорд, синусовая тахикардия, экстрасистолия

ECHOCARDIOGRAPHIC AND HEMODYNAMIC DISORDERS IN PATIENTS WITH UNDIFFERENTIATED CONNECTIVE TISSUE DYSPLASIA FEATURES

¹Norbo 'taye'v Olimjon Mustafaqul o'g'li <https://orcid.org/0009-0002-7978-0355>

²Mirzayev Ozod Voxidovich <https://orcid.org/0009-0004-3846-7607>

¹Tashkent State Medical University, 100109 Tashkent, Uzbekistan, 2 Farobiy Street,
Tel: +998781507825 E-mail: info@tdmu.uz

²Samarkand State Medical University, Samarkand, Uzbekistan A.Temur Street 18,
Tel: +99866 2330841 Email: sammu@sammu.uz

✓ *Resume*

Worldwide, at present, connective tissue pathology is a medical and social problem of internal diseases, the relevance of which is due to the following circumstances: the increase in the number of patients as a result of the accumulation of signs of connective tissue dysplasia with an autosomal dominant course among the population, the improvement of modern diagnostic capabilities, the presence of pathology in many organs and systems increases the risk of a number of complications, one of which is sudden death. According to recent studies,..."the prevalence of connective tissue dysplasia in the population varies - from 13% to 85%, which is associated with the ambiguity of accounting phenotypic features, the lack of a comprehensive approach to understanding the problem.

Keywords: Echocardiographic disorders, abnormal arrangement of chords, sinus tachycardia, extrasystole

Dolzarbligi

Elektrokardiografik buzilishlarning xususiyatlari yurak - qon tomir tizimining shikastlanishiga bog'liq edi. Tekshiruvga olinganlarda MKP, anomal joylashgan xorda, yurak klapanlarining miksomatoz degeneratsiyasi aniqlandi. Tadqiqotlarga ko'ra, tekshirilganlar orasida MKP 1-darajali regurgitatsiyasi 36,0%, 2-darajali MKP - 16,5%, AJX - 5,6%, YuKA – 3.3% tashxisi aniqlandi.

Bemorlarning sub'ektiv holatini baholash o'tkazildi, bu xolatda bemorlar ko'pincha yurak qon tomir tizimidan shikoyat qilishlari aniqlandi. Shuningdek, ko'plab bemorlar nafas qisilishi, kuchayib borayotgan zaiflik, bo'g'imlardagi og'riqlar va charchoqdan shikoyat qilishdi, shu sababli surunkali charchoq va mexnat unumdorligining pasayishi qayd etildi. Vegetativ disfunktsiyalar: asabiylashish va uyqu buzilishi bilan namoyon bo'ldi, bu ichki bezovtalik hissi bilan birga keldi; bemorlar og'ir aqliy va jismoniy faoliyat paytida bu tashvishlarning barchasini qayd etishdi.

Tadqiqot maqsadi: Biriktiruvchi to'qima differensiallashmagan displaziyasi bo'lgan bemorlarda elektrokardiografik va gemodinamik buzilishlarning ahamiyatini o'rganish va davolash tadbirlarini tashkil etish.

Tadqiqot materiallari va usullari

Bemorlarning tekshirilgan guruhlarida yuqorida ko'rsatilgan shikoyatlarning mohiyatini aniqlash qiziqish uyg'otdi. Agar birinchi navbatda, so'ralgan bemorlarning aksariyati yurak cho'qqisida sanchiqli og'riqni va yurak sohasida siqilish ko'rinishidagi noqulaylikni ko'rsatib o'tishdi. Ikkinchi o'rinda bemorlar yurak urishining davriy hurujari va yurakning ritmi buzilishi hissi haqida shikoyat qildilar. Ko'pincha bemorlarda bu shikoyatlarning barchasi chuqur nafas olish paytida havo yetishmasligi hissi, ya'ni nafas olish qiyinlashuvi bilan birlashtirildi.

Shunday qilib, 41,1% bemor nafas qisilishidan shikoyat qilgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan patologik jarayonning rivojlanishi natijasida 59,9% bemor ushbu shikoyatlarni bildirgan, bu holat bemorlarning ahvoli yomonlashayotganini va hayot sifatining pasayishini ko'rsatadi.

Bemorlarning 80 nafari (70,50 foizi) havo yetishmasligidan, 93 nafari (79,0 foizi) bosh og'rig'idan shikoyat qilgan bo'lsa, bu shikoyatlarning intensivligi umumiy holat va birga keladigan kasalliklarga qarab oshgan.

BTDD bilan og'rigan bemorlarda yurak ritmi va o'tkazuvchanligi buzilishlari mavjudligini har doim ham EKG tadqiqoti tasdiqlamaydi. Turli darajadagi biriktiruvchi to'qima displaziyasi mavjud shaxslarni aniqlash uchun bunday bemorlarda Xolter monitoringi o'tkazishlari kerak.

Shuni inobatga olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, BTDD da yurak qon tomir tizimi kasalliklari ko'p hollarda EKGda ma'lum o'zgarishlar bilan birga keladi (1.1-jadval).

1.1-jadval

Yurak ritmi kasalliklari	1-guruh	2-guruh	3-guruh
Sinus aritmiya	6	6	4
Sinus taxikardiyasi	12	22	11
Ekstrasistola	10	7	7
Repolerizatsiya buzilishi	10	12	11
Metabolik jarayonlar	12	18	18
Jami (%)	42.8	86	67.5

Simpatik asab tizimi faoliyatining kuchayishi haqida gapirish mumkin Sinus tugunining avtomatizm funksiyasi buzilishi sinusli taxikardiya deyiladi. Biz tekshirgan bemorlarda yurak urish soni juda katta farq qildi: mos ravishda 45 dan 150 zarba/ min gacha, bu ko'rsatkichlar o'rtacha $83,0 \pm 0,37$; minimal - 45 zarba / min, maksimal – 150 zarbani tashkil qildi. Biz tomonidan olingan ma'lumotlar adabiyotlardagiga o'xshash bo'lib, tinch holatdagi EKGda yurak urishlar soni keng o'zgaruvchanligini ko'rsatadi va holatlarning deyarli yarmida ko'rsatkichlar normal qiymatlardan oshmasligini ko'rish mumkin. Bizning tadqiqotlarimizda patologik jarayonning kuchayishi bilan yurak urishlari soning ortishi tendentsiyasi kuzatildi. Aytish kerakki, bemorlar kunduzi va kechasi taxikardiya epizodlaridan tez-tez shikoyat qilishdi, ayniqsa bularning barchasi jismoniy faoliyat davomida o'zini namoyon qildi, bu BTDD bilan og'rikan bemorlarning hayot sifatiga ob'ektiv ta'sir ko'rsatdi. Ko'proq holatlarda, bu BTDD fonida hamroh kasalliklari bo'lgan bemorlarga xos bo'ldi.

Biz tekshirilganlarning 24% da sinusli taxikardiyaning, 6.7% sinusli bradikardiyaning aniqladik, tekshirilganlarda bir nafarida sinus tuguni zaiflik sindromi fonida bradikardiya kuzatildi. Bu holat ko'pincha boshlang'ich vagotoniya bilan og'rikan bemorlarda kuzatilgan.

Sinus taxikardiyasi ko'rinishidagi yurak ritmining buzilishi ko'pincha ruhiy va jismoniy stress bilan bog'liq va bu asosan simpatikotoniya va gipersempatikotoniya belgilari bo'lgan shaxslarda kuzatildi. Bularning barchasi nafas qisilishi, havo yetishmasligi hissi kabilar bilan qo'shilib, bemorlarning hayot sifati va turmush tarziga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Natija va muhokamalar

Bizning kuzatishlarimizga ko'ra, BTDDning og'ir kechishida, bemorlarda yurak ritmining buzilishi bo'lmachalar ekstrasistoliyasi tinch holatda 5,0% va jismoniy mashqlar paytida 15%, qorincha ekstrasistoliyasi esa kamdan-kam 1,9% hollarda kuzatildi. Shu bilan birga, yurak rivojlanishidagi kichik anomaliyalari, vegetativ disfunktsiyalar va to'qimalarda magniy darajasining pasayishi ekstrasistoliyalarning namoyon bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Klinik jihatdan yurak ritmining buzilishi skolioz ko'rinishidagi umurtqa deformatsiyalar hamda laboratoriya tadqiqotlarida tekshirilganlarning qonida magniy miqdorining pasayishi bilan bog'liq.

Tekshiruvdan o'tgan bemorlarda atrioventrikulyar paroksizmal taxikardiya ha qayd etildi. Bizning kuzatishlarimizga ko'ra aytish mumkinki, paroksizmlarning uchrash chastotasi, patologiyaning og'irligiga qarab keng tarqalgan. Paroksizmlarning uchrash chastotasi asosan aritmiyalarga toqat qilmagan bemorlarga xos bo'ldi.

EKG ma'lumotlarini talqin qilish shuni ko'rsatdiki, BTDD bilan og'rikan bemorlarning 10,5 foizida qorincha kompleksidagi o'zgarishlar kuzatildi. Bizning fikrimizcha, bu tanadagi elektrolitlar muvozanatiga bog'liq bo'ldi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, BTDD fonida yurak-qon tomir kasalliklari bo'lgan ayrim bemorlarda EKG qilinganda miyokarda ba'zi o'zgarishlar aniqlandi. Adabiyotlardagi ma'lumotlarga ko'ra, bemorlar yurak gemodinamikasidagi erta o'zgarishlarni aniqlash uchun Doppler ExoKG yoki Xolter monitoringini o'tkazishni talab qiladi. Ushbu xulosalarni hisobga olgan holda, biz BTDD bilan og'rikan bemorlarda yurak gemodinamikasi parametrlarini o'rgandik.

Biriktiruvchi to'qima differensiallashmagan displaziyasi (BTDD) og'irligiga qarab, tekshirilgan bemorlar guruhlariga bo'lingan. BTDD yengil darajali guruhiga 96 nafar bemor (43,44%), o'rta og'ir darajasiga - 90 nafar bemor (40,72%) va og'ir darajalisiga - 35 nafar bemor (15,84%) kiradi. Shu munosabat bilan o'tkazilgan tadqiqotlar yurak gemodinamikasining buzilishini ko'rsatdi.

1.2jadval

Ko'rsatkichlar	Nazarat Guruhi	1-guruh	2-guruh	3-guruh
ODO', sm	4,78±0,05	4,90±0,054	5,27±0,05 *^	5,42±0,05 *^
OSO', sm	3,19±0,05	3,29±0,055	3,60±0,06 *^	3,92±0,07 *^
OF, %	64,8±1,0	56,57±0,67	54,92±0,62 *^	52,83±0,60 *^
YuZH, sm ³	67,6±2,1	68,09±1,37	76,83±1,48 *^	78,62±1,56*^
CHKOD	0,90±0,02	0,91±0,013	1,03±0,014 *^	1,15±0,016*^
CAT	0,84±0,012	0,91±0,01	0,99±0,01 *^	1,06±0,01*^
SAB, mm.sim.us.	104,4±0,23	105,92±0,85	109,3±1,21 *^	110,4±1,25*^
DAB, mm.sim.us.	69,14±0,84	69,89±0,66	72,02±0,88 *^	74,06±0,95 *^
YuQS, zarb./min	73,7±1,12	78,78±0,85	87,67±0,65 *^	92,17±0,76 *^

Xulosa

O'rginshlar natijasida shuni aytish mumkinki, BTDD ning klinik ko'rinishlari yurak-qon tomir tizimining holatiga va boshqa patologiyaning qo'shilib kelishiga aloqador. Bu elektr o'tkazuvchanligi va yurak ritmining o'zgarishi bilan bog'liq. Ba'zi bemorlarda og'ir holatlarda ular aorta anevrizmasining rivojlanishiga va to'satdan o'limga olib kelishi mumkin. BTDDda yurak-qon tomir kasalliklarini rivojlanish mexanizmini o'rganish, shuningdek, erta aniqlash o'smirlar va yoshlarda dispanser hisobga olish, davolash va asoratlarni oldini olish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Н. Ю. Тихомирова, Л. Н. Елисеева, З. А. Басте, И Г. Малхасян. Особенности качества жизни у лиц молодого возраста с недифференцированной дисплазией соединительной ткани и дефицитом магния. // Кубанский научный медицинский вестник 2014;6(148):87-90.
2. Nechayeva G.I. i soavt. K probleme displazii soyedinitelnoy tkani v patologii serdechno-sosudistoy sistemi u detey. // Jurnal «zdorove rebenka» 2007;4(7):20-24.
3. Nechayeva G.I., Viktorova I.A. Displaziya soyedinitelnoy tkani: terminologiya, diagnostika, taktika vedeniya pasiyentov.- Omsk, 2007; 188 bet.
4. Шодиккулова Г.З., Фозилова М.Ш. Состояние периферической системы крови больных с дисплазией соединительной ткани. // Журнал Достижения науки и образования Россия 2022;1(81):61-66.
5. Шодиккулова Г.З., Бабамуратова З.Б., Клинико-патогенетические аспекты развития первичного пролапса митрального клапана у лиц с недифференцированной дисплазией соединительной ткани. Материалы научно-практической конференции. // Журнал «Кардиология Узбекистана» Ташкент 2018;2:176-177.
6. Babamuratova Z.B., Shodikulova G.Z., Mirzaev O.V. Treatment of patients with undifferentiated connective tissue dysplasia in mitral valve prolapse with varying degrees of mitral regurgitation // European Science Review – Vena, 2018 March-April; 3-4:140-143.
7. Shodikulova G.Z., Babamuratova Z.B., Occurrence of clinical options of undifferentiated connective tissue dysplasia in uzbek population // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. 2020; 24-Issue.
8. Shodikulova G.Z., Mirzaev O.V., Babamuratova Z.B. Prevalence of clinical options of undifferentiated connective tissue dysplasia in uzbek population // LXIV international correspondence scientific and practical conference «EUROPEAN RESEARCH: innovation in science, education and technology» / – London, United Kingdom, 2020; 90–92 pp.
9. Shodikulova G.Z., Mirzaev O.V., Babamuratova Z.B. Prevalence of clinical options of undifferentiated connective tissue dysplasia in uzbek population // LXIV international correspondence scientific and practical conference «EUROPEAN RESEARCH: innovation in science, education and technology» / – London, United Kingdom, 2020; 90–92 pp.
10. Shodikulova G.Z., Mirzaev O.V., Samatov D.K., Распространенность и клинико-генетические особенности дисплазии соединительной ткани у лиц узбекской популяции // “Журнал кардиореспираторных исследований” 2023;1:95-99.

Qabul qilingan sana 20.05.2025